



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICHI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

HOZIRGI O'ZBEK ROMANCHILIGIDA URUSH MOTIVI VA TASVIRI: ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANI MISOLIDA

Sharofova Gulshoda,

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi o'zbek romanchiligida urush motivining badiiy ifodasi va insoniy taqdirilar bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida urush oqibatida yuzaga kelgan ruhiy iztiroblar, uning qahramonlar hayotida qoldirgan mudhish asoratlarning o'ziga xos poetik talqini yoritiladi.

Kalit so'zlar: Urush motivi, urush tasviri, zamonaviy o'zbek romanchiligi, Ulug'bek Hamdam, "Ota" romani, ruhiy iztirob, badiiy tahlil.

Urush – insoniyat tarixining eng murakkab va ziddiyatli hodisalaridan biri. Bu atama ostida nafaqat qurolli to'qnashuvlar, balki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va psixologik inqirozlarning butun majmui yashiringan. Tarixning har bir davri o'z urushlarini ko'rgan va har bir urush jamiyat hayotida chuqur izlar qoldirgan. Bir tomondan, urush davlatlarning siyosiy manfaatlarini amalga oshirish vositasi sifatida qaralsa, ikkinchi tomondan, u millionlab odamlarning hayotini yo'q qiluvchi, madaniyatlarni vayron etuvchi falokat hisoblanadi. Qadimgi Mesopotamiya va Misr urushlaridan tortib, zamonaviy geopolitik ziddiyatlargacha – qurolli to'qnashuvlar doimo insoniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib kelgan.

Urush tasviri jahon va o'zbek adabiyotining eng qadimiy va ko'p qirrali mavzularidan biri bo'lib, u badiiy yaratishning nafaqat predmeti, balki yozuvchining dunyoqarashi, falsafiy pozitsiyasi va estetik tamoyillarini namoyon etuvchi muhim maydon hisoblanadi. Homer "Iliada" sidan tortib zamonaviy nasrgacha – urush har doim adabiyotda markaziy o'rinlardan birini egallagan va har bir davr o'z badiiy uslublari orqali bu mavzuni talqin qilib kelgan. Adabiyotda urush tasviri oddiy tarixiy voqealar yoki jang sahnalarining tasviri bilan chegaralanmaydi. Balki uning insoniyat taqdiriga bevosita ta'siri, janggoh va undan tashqaridagi insonlarning turmushlari misolida yoritiladi.

O'zbek adabiyotida, ayniqsa istiqlol davrida, urush tasviri tubdan yangilandi. Sovet davrining cheklovlaridan ozod bo'lgan yozuvchilar urushni qahramonlik va fidokorlik ramzi sifatida emas, balki insoniyat uchun eng katta fojia ekanligini tasvirlay boshladilar.

Urush mavzusining adabiyotda yoritilishi hali maxsus tadqiq etilmagan bo'lsa-da, kichik tadqiqotlar va bir qancha ilmiy maqolalar orqali bu mavzu xususida izlanishlar olib borilgan. Xususan, E.Murtazayevning "O'zbek va jahon adabiyotshunosligida urush mavzusi talqini" [2], N.Ro'zimurodovanning "Urush motivi va yo'qotilgan avlod fojiasi" [3], A.Basirning "Urush mavzusining adabiyotdagi o'rni va tarixiy shakllanishi", Suyunova Maftuna Do'sqobil qizi "XX asr o'zbek adabiyotida urush mavzusi" kabi maqolalarni bunga misol sifatida kiritishimiz mumkin.

Zamonaviy o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Ulug'bek Hamdam ham o'z asarlarida urushning dahshati va uning insoniyatga yetkazgan og'ir yaralarini mahorat bilan tasvirlagan. Jumladan, ijodkor qalamiga mansub "Ota" romanida ham urushning og'ir talofatlari qalamga olingan. Asar borasida o'z mulohazalarini bayon etgan Umarali Normatov "Mavzu-mundarija, tasvir, talqin jihatidan avvalgi asarlarining birortasini takrorlamaydigan bu romandagi Ikkinchi jahon urushi voqealaridan tortib bugungi kunimizgacha sodir bo'lgan ham vahshatli, ham quvonchli lavhalar o'quvchi ko'zi oldida baralla gavdalanadi" – deya fikr bildiradi. Asarni o'qir ekansiz, urush va uning insoniyatga ta'siri ko'z oldingizda bo'y-basti bilan ko'rinadi. Asarning "Urushda" deb nomlangan bobini o'qish davomida buning bevosita guvohiga aylanish mumkin. Bosh qahramonlardan sanalmish O'tkir aka va uning oilasi misolida urushning qiyinchiliklari ko'rsatilgan. O'tkir akaning o'g'li Po'lat urushni bir jasorat sifatida bilib, ko'ngilli sifatida urushga olishlari uchun qayta-qayta murojaat qiladi. "Povestka" – bildirish xati bilan kirib kelganda uyda naq qiyomat qo'pti – Oychechak opa o'g'lining

bo'yniga osilgan ko'yi uvvos solib yig'ladi" tasviri orqali urushning dahshatini his qilgan onaning farzandi uchun alamli ko'z yoshlari tasvirlangan. Bu kabi hissiyotlarni o'sha davrdagi har bir ayol o'z otasi, aka-ukasi, turmush o'rtog'i, farzandi uchun his qilib ko'rgan desak xato bo'lmaydi. Ayolning yakka-yu yagona o'g'li Po'lat edi, kichik o'g'li Kenjavoy urush davridagi ocharchilik zamonida kunjara yeb, bo'kib vafot etgandi. Urush shu darajada qiyinchiliklarga sabab bo'lganki, insonlar yeyishga bir burda non topa olmaganliklari mahorat bilan chizilgan. Ochlikning o'ziyoq qanchadan qancha insonlarni bu hayotdan olib ketgan.

Lekin shunga qaramay, ona taqdirga tan beradi urushni "Elga kelgan to'y" deb ataydi, sababi atrofdagi deyarli hamma oilalardan erkaklar urushga yuborilayotgan edi. Dastlab Po'lat urushga borganda, unga miltiqni qanday ushlashdan tortib, jang sirlari birma-bir o'rgatiladi. Urushda qurol-yarog' yetishmasdi, to'rt kishiga bir dona eski miltiq to'g'ri kelgan. Bu jang maydonida xohlagan soniyada askar o'z jonidan ayrilishi mumkinligini anglatgan. Shu maydonida yurgan qahramon "Urushda eng arzoni – jon" deya, bir-birini ayamay o'ldirayotgan jangchilarni ko'rib iztirob chekadi. U odam o'ldirishni "Yetti uxlab tushimda ham ko'rmagan qabihlik" deya ataydi. Ammo jonini saqlash uchun, Po'lat ham shu ishni qilishi kerak edi. Urush davomida Nikita ismli yigit bilan do'st tutinib, jon saqlashga harakat qilishadi. Hatto o'z dushmanlariga ham yordam berishadi, o'zlaridan 3-4 yosh kichik, murti endi sabza urayotgan olmon yigitchani Po'lat "Gyotening Verter" iga o'xshatadi. Bu qilingan yordamni u "Katta urushda o'rnatilgan kichik tinchlik" deya ataydi. Bu yaxshilikdan uning qalbi allaqanday iliqlikni his qiladi. Yuqoridagi tasvir orqali yozuvchi Po'latning yuragida ezgulik uchun hali joy borligini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Asar qahramonlari janggohda shunchalik og'ir kunlarni boshdan kechirishadiki, urushni "Do'zax", oilalarini bag'rini esa "Jannat" deb ta'riflashadi. Asar qahramoni Po'lat og'ir qiyinchiliklar bilan urushdan qaytadi. Ammo urushdan keyin ham u qamoq azobini tortadi. Bu "Do'zax" uning hayotida og'riqli izlarini qoldiradi. Asarda urush bir inson hayotini qanchalik barbod qilganligini Po'lat misolida ko'rish mumkin. Jahon adabiyotida urush qatnashchilariga nisbatan "Yo'qotilgan avlod" atamasi qo'llangan. Chunki ular yillar davomida dunyodagi eng qabih ishlar bilan yuzma-yuz bo'lishadi, shunday ishlarni qilishadi. Urush qatnashchilari uchun faqat bugun bor, kelajak haqida ularning fikrlari o'tkir tumanlar orasida qolgan. Ulug'bek Hamdamning "Ota" asarida ham urush insoniyatga umidsizlik hissini berishi "Endi Po'lat uchun ikki dunyo bir edi" ifodasi orqali namoyon etilgan. Asarda Po'lat obrazi orqali urush maydoni, har lahza askarlar yuzlashayotgan qiyinchiliklar, yosh va zabardast yigitlarning o'qlar ostida dunyodan ko'z yumayotgani, dushmanlarning asirlarga nisbatan shafqatsiz munosabati, urush insoniyatning butun umriga qanday ta'sir etishi yoritib berilgan. Insonlar o'zlari kabi insonlarga hayvondan ham past nazar bilan munosabatda bo'layotganlari achchiq tasvirlar orqali beriladi.

Jangdagi askarlarni tirik saqlab, davom etishga undaydigan tuyg'u bu – Vatan va oilalariga bo'lgan muhabbatlari ekanligi ta'kidlanadi. Dastlab urushni vatanparvarlik, jasorat sifatida bilgan qahramon urushda davomida fikrlari xato bo'lganligini qayta-qayta anglaydi. Aynan shu haqiqat – urush bu vatanparvarlik emas, insoniyat boshiga kelgan eng dahshatli balo ekanligi g'oyasi asarda o'z aksini topgan.

Xulosa qilib aytganda, Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida o'zbek xalqining ikkinchi jahon urushi va undan insoniyat olgan zarbalari tasvirlangan. Asarda urush mavzusi o'ziga xos tarzda qalamga olingan bo'lib, asarni o'qigan kitobxon tasvirlar orqali urushning dahshatlarini bevosita his etadi. Urush kelajakni, millatlararo munosabatlarni vayron etuvchi balo ekanligi namoyon etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamdam U. Ota: roman. So'zboshi muallifi: U. Normatov. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2022. – 208 b.
2. Murtazayev E. O'ZBEK VA JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGIDA URUSH MAVZUSI TALQINI //Turon Sciences. – 2024. – T. 1. – №. 1.

3. Chorixo'jayevna R. N. URUSH MOTIVI VA YO 'QOTILGAN AVLOD FOJIASI //Hamkor konferensiyalar. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 327-330.
4. kizi Rustamova, G. B. (2025). TRANSFORMATIONAL ASPECTS INHERENT IN DENDRICAL IMAGES IN NEW UZBEK LITERATURE. Bulletin news in New Science Society, 2(6), 291-298.
5. Bakhronovna, G. R. (2023). The Paradigmatic Relationship of the Tree as Well as Water and Fire in Folklore. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(5), 237-242.
6. Rustamova, G., & Sharofova, G. (2024). USMON AZIM SHE'RIYATIDA KO'Z BILAN BOG 'LIQ SOMATIK OBRAZLAR DINAMIK POETIKASI. Solution of social problems in management and economy, 3(1), 43-46.
7. Bakhronovna, R. G., & Saidaxmedovna, O. R. D. (2024). Renewal of Artistic Movements in Modern Poetry. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 186-192.
8. Bakhronovna, R. G. (2024). Irony as a Type of Movement in Artistic Literature. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 231-235.
9. Saidakhmedovna, U. D., & Bakhronovna, R. G. (2022). Some Comments on the Expression of the Image of "Life Tree" In Legends and Narrations. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 2(6), 51-55.
10. OBRAZINING, Q. (2020). O'ZIGA XOS TALQINLARI. НамДУ илмий ахборотномаси, 1, 5-311.
11. Kizi, R. G. B., Ubaydullayevna, N. Y., & Kizi, M. M. I. (2020). The image of trees in folklore: Genesis and poetic interpretations. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(4), 6342-6349.
12. Рустамова, Г. (2021). ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА АНОР ПОЭТИК ОБРАЗИНИНГ БАДИИЙ ИФОДАСИ: Рустамова Гавҳар Баҳрон қизи Бухоро давлат университети таянч докторанти. In Научно-практическая конференция (Vol. 1, pp. 287-291).